
№6 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№6 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ

Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Равшанов Лочинбек Уринович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD

Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoyirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

ALFRED ADLER INDIVIDUAL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS SIBLING MAQOMI TALQINI

G‘ayibova Nargiza Anorbayevna
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Annotatsiya. Mazkur maqola shaxs shakllanishida sibling maqomining psixologik ahamiyati, uning shaxs xususiyatlari, ijtimoiy xulq-atvori, emotsional rivojlanishi va shaxslararo munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishi ochib berilgan. Sibling maqomi tushunchasi shaxsning oiladagi aka-uka va opa-singillar tizimida egallagan o‘rni, tug‘ilish tartibi, yosh farqi, o‘zaro munosabatlar xususiyati bilan bog‘liq holda talqin qilingan. Individual psixologiya asoschisi Alfred Adlerning shaxs rivojlanishiga sibling maqomi ta’siri va turli sibling maqomining o‘ziga xos jihatlari borasidagi qarashlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, shaxs, individual psixologiya, sibling maqomi, sibling munosabatlar, detronizatsiya jarayoni, nomukammallik kompleksi, to‘ng‘ich farzand, o‘rtancha farzand, kenja farzand, yolg‘iz farzand.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИБЛИНГОВОГО СТАТУСА ЛИЧНОСТИ В ИНДИВИДУАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ АЛЬФРЕДА АДЛЕРА

Аннотация. В данной статье раскрывается психологическое значение сиблингового статуса в формировании личности, а также его влияние на личностные особенности, социальное поведение, эмоциональное развитие и межличностные отношения. Понятие сиблингового статуса трактуется в связи с положением, которое человек занимает в семейной системе братьев и сестер, порядком рождения, разницей в возрасте и характером взаимоотношений. Приводятся сведения о взглядах основателя индивидуальной психологии Альфреда Адлера на влияние сиблингового статуса на развитие личности и специфику различных сиблинговых позиций.

Ключевые слова: семья, личность, индивидуальная психология, сиблинговый статус, сиблинговые отношения, процесс детронизации, комплекс неполноценности, старший ребенок, средний ребенок, младший ребенок, единственный ребенок.

INTERPRETATION OF AN INDIVIDUAL'S SIBLING STATUS IN ALFRED ADLER'S INDIVIDUAL PSYCHOLOGY

Annotation: This article explores the psychological significance of sibling status in personality formation, as well as its impact on individual traits, social behavior, emotional development, and interpersonal relationships. The concept of sibling status is examined in relation to a person's position within the family's sibling subsystem, birth order, age gaps, and the nature of sibling dynamics. Furthermore, the article outlines the views of Alfred Adler, the founder of individual psychology, regarding the influence of sibling status on personality development and the specific characteristics of various sibling positions.

Key words: family, personality, individual psychology, sibling status, sibling relationships, dethronement process, inferiority complex, oldest child, middle child, youngest child, only child.

KIRISH

Shaxsning shakllanishi murakkab, ko‘p qirrali va uzluksiz davom etadigan psixologik jarayon bo‘lib, unda biologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit, tarbiya, ta’lim, shaxsiy tajriba va shaxslararo munosabatlar o‘zaro ta’sir qiladi. Oila shaxs shakllanishidagi ilk ijtimoiy muhit hisoblanib, oiladagi muhit shaxsning o‘zini anglashi, emotsional barqarorligi, muloqot uslubi, qadriyatlari va xulq-atvor strategiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlari bolaning boshqa ijtimoiy institutlardagi xulq uslubi va muloqot sifatiga ta’sir qilmay qolmaydi. Har bir bola avvalo, oilada so‘ngra esa jamiyatda insonlarga bog‘liq, kerakli va sevimli bo‘lishni istaydi. Oilada bolaning o‘z o‘rnini qanday idrok qilishi, uning o‘ziga va boshqalarga baho berishiga yordam beradi. Bu baho esa uning ijtimoiy ustanovkasiga yoki turmush tarziga birlashib, uning hayot yo‘lini belgilashida muhim ahamiyatga egadir.

Sibling maqomi shaxsning oiladagi aka-uka va opa-singillar munosabatlari tizimidagi o‘rnini ifodalovchi ko‘p komponentli tushuncha sifatida qaralishi mumkin. Uning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

– Tug‘ilishdagi tartib - bolaning birinchi, o‘rta, kenja yoki yagona farzand sifatidagi o‘rni.

– Siblinglar o‘rtasidagi yosh farqi - o‘zaro munosabatlardagi tenglik, g‘amxo‘rlik va raqobat imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omil.

– Oilaviy rollar - katta farzandga mas’uliyat yuklash, kichik farzandni himoya qilish yoki ayrim vazifalarni muayyan bola zimmasiga yuklash.

– Ota-ona munosabatining xususiyati - farzandlarga jins, yutuqlariga ko‘ra munosabat qilish, ularning ehtiyojlariga javob qaytarish va qoidalarni qo‘llash usullari.

– Sibling munosabatlarining sifati - mehr, ishonch, hamkorlik, raqobat, nizo va o‘zaro yordam darajasi.

– Bolaning subyektiv tajribasi - o‘zini oilada qadrli, e’tibordan chetda qolgan, mas’ul yoki raqobatga majbur bo‘lgan shaxs sifatida his qilishi.

Shaxsga psixologik xizmatni tashkil etishda sibling maqomining yuqoridagi jihatlariga ahamiyat qaratish lozim.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Shaxs shakllanishida sibling maqomi ta’sirini xorijlik olimlar, jumladan A.Adler, Z.Freyd, U.Toumen, R.Richordson, R.Driskoll, D.Iksteyn, R.Brazington, R.Zayons, F.Galton, S.Shaxter, G.Xomentauskas, T.Dumitrashku va boshqalar o‘z madaniy muhiti sharoitida o‘rgangan. Jumladan, XX asrning 70 yillarida avstraliyalik psixolog Uolter Toumen sibling maqomining shaxs shakllanishiga ta’siri mavzusiga oid ko‘pgina tadqiqot ishlari olib bordi. U minglab oilalarni o‘rganib, qadriyatlar tizimining, moliyaviy ahvolining va ma’lumoti darajasining turlicha bo‘lishiga qaramasdan oiladagi o‘rni bir xil bo‘lgan insonlar xarakterida juda ko‘p o‘xshashliklar borligini aniqlagan. U sibling maqomi hatto kelajakda umr yo‘ldoshi tanlashga va u bilan bo‘ladigan munosabatlarga ham ta’sir qiladi, deb hisobladi.

Ingliz olimasi Judi Dann o‘z ishlarida oilada siblinglar o‘zaro munosabatlarini o‘rganib, uni beshta yo‘nalishga asoslanishini isbotladi. Ular: raqobat, bog‘liqlik, xavfsizlikni ta’minlash, yaqinlik (o‘zaro sirlar, samimiy hazillar), umumiy orzu-havaslardir. Masalan, bog‘liqlikni ko‘pgina maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ko‘pchiligida ko‘rish mumkin. Bolalar orasidagi yosh qanchalik kichik bo‘lsa, munosabatlarda shunchalik bog‘liqlik kuzatiladi.

Mavzu doirasidagi ilk, asosiy tadqiqot va kuzatuv ishlarini individial psixologiya asoschisi Alfred Adler ishlarida ko‘rish mumkin. Olim shaxs shakllanishida ijtimoiy muhitning asosiy roli haqida gapirar ekan, inson hayot tarzidagi asosiy determinant, qilib tug‘ilishdagi tartibni, sibling maqomini ko‘rsatadi. Shaxsning sibling (inglizcha sibling, sibs - bir oiladagi aka-ukalar va opa-singillar) maqomi uning shaxs xususiyatlari shakllanishiga, kishilar bilan munosabatlarining xarakteriga, umuman olganda, kelgusi hayotda o‘z o‘rnini topishiga ta’sir qilishini ta’kidlagan. Adler oiladagi hayot tarzining o‘zgarishi farzandlarning har biriga turlicha ta’sir ko‘rsatadi, deb hisobladi. Bir xil oilada tarbiyalanayotgan bolalar uchun ijtimoiy vaziyat turlicha bo‘ladi. Oilada har bir keyingi farzandning tug‘ilishi, oldingi farzandlar hayot tarzining o‘zgarishiga (ota-

onalar munosabatlari, oiladagi bolalar o‘zaro munosabatlari va boshqalar) sabab bo‘ladi. Har bir sibling maqomining o‘ziga xos taraflari bor, shunday ekan har bir maqomga xos bo‘lgan vaziyatlarni o‘rganish zarur deb hisobladi. Ya’ni, mavjud vaziyatni bola qanday his qilishi, uning sibling maqomi hayot tarziga qanday ta’sir ko‘rsatadi va hokozo.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adler qarashlari tizimining markaziy nuqtasini individuum(shaxs)ning sotsiumdan ajralmasligi g‘oyasi tashkil qiladi. Adler shaxsning ijtimoiy determinatlariga alohida e’tibor berar ekan, u quyidagilarni muhim deb hisoblagan:

a) Insonlarning o‘z taqdirlarini o‘zlari yaratishlari;
b) Qoniqarli hayot kechirish uchun hayvoniy mayllarini va nazorat qilib bo‘lmaydigan muhitni bartaraf qilishlari;
c) O‘zini o‘zi anglash orqali o‘zlarini va atrof olamni takomilashtirishlari.

Adlerning ta’kidlashicha, shaxsning doimo oldinga mukammallikka, muvaffaqiyatga, barkamollikka intilishi, hamjihatlik hissi va kimgadir kerak bo‘lish, maqsadga erishish uchun insonlar bilan birgalikdagi faoliyatga intilishi shaxs taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlardir. Shaxsning o‘zi haqidagi tasavvuri (“Men”- konsepsiyasi), orzusidagi meni (“Men”-ideal), Weltbild (olam obrazi) va o‘zining axloqiy pozitsiyasi o‘rtasidagi nomutanosiblik “nomukammallik kompleksi”ni keltirib chiqaradi. Agar bolada “nomukammallik” kompleksi oz miqdorda bo‘lsa, bu bolani oldinga intilishga, boshqalardan kuchli va aqlli bo‘lishga chorlaydi, ammo “nomukammallik kompleksi”ning ortib ketishi shaxs o‘sishi va rivojlanishiga halaqit qiladi. Adlerning fikricha, bolaga yomon munosabatda bo‘lish, unda “Napaleon kompleksi”ni paydo qiladi, bu esa uning keyingi hayoti qanday bo‘lishini belgilab beradi.

Turli sibling maqomidagi bolaning mavjud vaziyatni idrok qilishi turlicha bo‘lgani kabi hayot tarzi ham shunga qarab o‘zgaradi, deb ta’kidlab, ayrim psixologik xususiyatlar oiladagi ma’lum sibling maqomidagi bolaga xosligini aniqladi. Adler oilada farzandlarning tug‘ilish tartibiga qarab shartli ravishda to‘rt turini farqlaydi: birinchi farzand (to‘ng‘ich), o‘rtancha farzand, kichik farzand (kenja) va yagona farzand. Tadqiqotimiz mohiyati bevosita Adlerning shaxs shakllanishida tug‘ilishdagi tartibning ta’siri g‘oyasi bilan bog‘liqligini hisobga olgan holda, quyida har bir sibling maqomiga olim tomonidan berilgan xulosalarni kengroq keltirishni ma’qul topdik:

Adler ta’rificha, to‘ng‘ich farzand maqomini keyingi farzand tug‘ilgunga qadar havas qilgulik deyish mumkin. Birinchi farzand tug‘ilishini odatda ota-onalar juda intizorlik bilan kutadilar, barchasi “ko‘ngildagidek” bo‘lishi uchun bor kuchlarini ishga soladilar. Ko‘p hollarda to‘ng‘ich farzand ota-onasidan cheksiz

mehr-muhabbat va g‘amxo‘rlik oladi. Bunday munosabatlarning barchasi keyingi farzand tug‘ilishi bilan o‘zgaradi. Bu hodisa uning dunyoqarashi va oiladagi o‘rnini o‘zgartirib yuboradi. Bolaning “taxtdan tushishi”, mavqening birdan o‘zgarishi va kutishlar tizimining ham shunga yarasha boshqacha bo‘lib qolishi bilan bog‘liqdir. Bu holat Adler iborasi bilan aytganda, “detronizatsiya”, ya’ni “taxtdan ayrilish” deb ataladi. Bola uchun bu hodisa juda talofatli bo‘lib, u ota-ona e’tibori uchun ukasi bilan raqobat, kurash olib boradi. Ammo qancha harakat qilmasin oiladagi ilgargi hayotni, mavqeni qaytarib bo‘lmaydi. Vaqt o‘tishi bilan uning talablarini bajarish uchun ota-onalari juda ham bandligini tushunadi. Bundan tashqari ota-onaning boladan ustunlik jihati - avtoritarlik bor, ular bolaning og‘ir xulqi uchun jazolashlari mumkin. Bunday oilaviy kurashlar natijasida bola o‘zini inkor etilgandek his qilib, xech kimning yordami va qo‘llab quvvatlashlarisiz, yolg‘izlikda yashash strategiyasini egallaydi. Ammo ota-onalar o‘z vaqtida mehr-muhabbat bilan to‘ng‘ich farzandga muomala qilsalar va keyingi farzand tug‘ilishiga bolani tayyorlagan bo‘lsalar, “detronizatsiya” jarayoni bola uchun talofatlarsiz o‘tadi. Adler to‘ng‘ich bolaning oiladagi mavqeini hisobga olgan holda, uni mustaqil qarorlar qabul qilishga va liderlikka intiluvchan bo‘ladi deb hisobladi.

O‘rtancha farzandga boshdanoq o‘zidan katta aka yoki opasi ta’sir ko‘rsatib turadi. Shu tufayli uning rivojlanishi to‘ng‘ich farzandlarga nisbatan tez bo‘ladi. Masalan, u to‘ng‘ichga qaraganda tez gapirishi yoki yurib ketishi mumkin. Adlerning fikricha, u hayotda o‘zini o‘zgalardan oldinga o‘tib yugurayotgandek tutadi, kimlardandir o‘zib ketishga intiladi. Natijada ikkinchi farzand, ko‘pincha raqobatdosh va obro‘li shaxs bo‘lib yetishadi. A.Adler o‘rtancha farzand haqida shunday degan edi: “Ikkinchi farzand doimo ikki tomondan bosim ostida bo‘ladi. Bir tarafdan katta akasining o‘zib ketishidan qo‘rqsa, ikkinchi tarafdan ukasining o‘ziga yetib olishidan cho‘chiydi. Agar u oilada jinsi bo‘yicha yolg‘iz bo‘lmasa, oilada o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun qattiq harakat qilishi kerak bo‘ladi. O‘rtancha farzandlarning hayot tarzi boshqalardan ajrab turish uchun, doimo o‘zidan katta opasi yoki akasidan ustunroq ekanligini isbotlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shunday qilib, o‘rtancha farzandlarning o‘ziga xosligi muvaffaqiyatga intilishdir. Adler shu bilan birga, o‘rtancha farzandlar o‘z oldilariga erishib bo‘lmaydigan maqsadlarni qo‘yadi, deb hisoblaydi. Shunisi e’tiborliki, Adlerning o‘zi ham oilada o‘rtancha farzand bo‘lgan.

Kenja farzandlarning oiladagi mavqei boshqa munosabatlarda ham o‘zgachadir. Birinchidan, u hech qachon “tojdan ayrilish” shokini boshidan kechirmaydi, oilada kichik bo‘lganligi sababli nafaqat ota-onasi, balki agar katta oila bo‘lsa, katta aka-opalarining ham g‘amho‘rligi va e’tiborida bo‘ladi. Ikkinchidan, agar ota-onasi moliyaviy jihatdan cheklangan bo‘lsa, u oilaning boshqa a’zolarining

“narsa”lardan bemalol foydalanadi. Shu bilan birga undan tajribali va aqlliroqlarning mavjudligi, ularning “kattaligi” unda “nomukammalik” hissini paydo qiladi, bunga mustaqillikning cheklanganligini kiritish mumkin. Chunki uning uchun ba’zi bir ishlarni akalari yoki opalari bajaradi. Shularga qaramasdan kenja farzandning katta siblinglardan o‘tib ketish motivatsiyasi kuchli bo‘lganligi bois, muvaffaqiyatga intilish imkoniyatlari ulkandir. Natijada ko‘pincha u eng zo‘r suzuvchi, eng yaxshi sozanda, hurmatga sazovor talaba bo‘lishi mumkin.

Yolg‘iz farzand maqomi o‘ziga xos murakkab, chunki u bilan ma’lum ma’noda musobaqalashadigan siblinglar yo‘q. Mudom onaning g‘amho‘rligini chuqur his qilishi, ko‘pincha yolg‘iz o‘g‘illarning ota bilan raqobatlashishiga olib keladi. Yolg‘iz farzand hech qachon oilada o‘z o‘rni uchun kurash olib bormagan. Doimo e’tiborda bo‘laganligi sababli, tengdoshlari bilan bo‘ladigan shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklarga uchrashlari mumkin.

XULOSA

Yuqorida A.Adler tomonidan keltirilgan ta’riflar har bir to‘ng‘ich, o‘rtancha, kenja va yolg‘iz farzandlar hayot tarziga to‘laligicha mos kelmasligi mumkin. U faqat har bir bolaning maqomi o‘ziga xos muammolardan iborat (“taxtdan tushish”, kattalar bilan raqobatlashish va shunga o‘xshash) ekanligini ko‘rsatdi. Adlerning shaxsni tadqiq qilishdagi muammolar va ularning yechimini topishga qaratilgan harakatlari har bir bola to‘qnash kelishi mumkin bo‘lgan muammo, oilada siblinglik maqomini o‘rganishni taqozo etadi. Xulosa qilib aytganda, sibling maqomini shaxsning ijtimoiy va emotsional rivojlanishi kechadigan oilaviy munosabatlar tizimining muhim qismi sifatida baholash ilmiy jihatdan asoslidir. Shaxs shakllanishida sibling maqomining o‘rni borasidagi tadqiqotlarni rivojlantirish orqali mazkur muammoni o‘rganish oilalardagi shaxslararo munosabatlarni muvofiqlatirishga xizmat qiladi. Zero, siblinglar o‘rtasida o‘zaro ijobiy munosabatlarning qaror topishi shaxs uchun ham, oila va jamiyat uchun ham foydalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Адлер А. Индивидуальная психология. - Питер.: СПб, 2021. - 256 с.
2. Адлер А. Как управлят стремлением к превосходству / Возрастная психология. Хрестоматия: Учеб. пособие для студ. пед. вузов - М.: “Академия”, 2000. - 624 с. С.155
3. Дойч Ф. Отношения сиблингов.// Психологическая энциклопедия. Изд. 2-е / Под ред. Р. Корсини, А.Ауэрбаха. - СПб.: 2003.- 936 с.
4. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. - М.: Гардарики, 2005. - 320с. С.237-238.
5. Karimova V.M., G‘ayibova N.A. Oila psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. - T.:

2022. - 232 b.

6. G‘ayibova N.A. Sibling maqomi va uning o‘smir shaxslararo munosabatlariga ta’siri. Monografiya. - T.: 2020 - 114 b.

7. G‘ayibova N. A. Sibling munosabatlarning bola intellektual rivojlanishiga ta’siri // Ta'limda istiqbolli izlanishlar 2026 №5. 127-130- betlar.

8. Anorbayevna G. N. Influence of the sibling statuse’s of teenagers on interpersonal relations //European journal of education and applied psychology. - 2016. - №. 2. - S. 68-69.

SPONTANEOUS ONLINE SHOPPING AS A STRESS-COPING MECHANISM Alena Garber., Railya Kereyeva	6
HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA IJOBIY IMIJINING PSIXOLOGIK JIHATLARI Ravshanov Lochinbek Urinovich	14
ALFRED ADLER INDIVIDUAL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS SIBLING MAQOMI TALQINI G‘ayibova Nargiza Anorbayevna	20
QANDLI DIABETGA CHALINGAN SHAXSLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIK VA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI Sadikova Umida Botirovna	27
O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESSNING YUZAGA KELISHIGA TA’SIR ETUVCHI INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK OMILLAR Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna	35
OLIY TA’LIMDA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi	43
O‘SMIRLIK DAVRIDA INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA IJTIMOIY TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK MOHIYATI Mirsidikova Aziza Mirvohidovna	50
HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI Qodirov G‘olibjon Tolibjon o‘g‘li	63
TA’LIM JARAYONIDA DEONTOLOGIK TAMOYILLAR ASOSIDA NIZOLARNI BOSHQARISH Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	70
PEDAGOGIK TAFAKKUR TARIXIDA FIKR TARBIYASI: YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMDA QO‘LLANISH IMKONIYATLARI Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna	78

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LINGVOMETODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH **Yuldasheva Umida Maxmudovna**	**85**
KURSANT VA TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA EKSTREMAL SHAROITLARDA HARAKAT QILISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI **Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich**	**92**
SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI **Sayfullaeva Dilbar Izzatillaevna**	**101**
KASBIY MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING IMKONIYATLARI **Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi**	**110**
“TARBIYA” DARSLARIDA RAQAMLI HIKOYALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HALOLLIK, MAS’ULIYAT VA MEHR-OQIBAT FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH **Abdullayeva Surayyo Babojonovna**	**119**
O‘ZBEKISTONDA KIMYO O‘QITISH METODIKASINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOTI **Sulaymonqulov Islomjon**	**131**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY HIMOYA TERMINOLOGIYASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNI MILLIY TERMIN SHAKLIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI **Elmirzayeva Maftuna Do‘smurod qizi**	**136**

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHE’RIY ASARLAR TAHLILIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 145
Mullayeva Madina Qudratovna